

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
ONA TILI**

(V SINF)



Toshkent - 2020

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish,*).

Tinglab tushunish:

monologik, dialogik nutq va suhbatni eshitib tushuna oladi;
tinglangan matn (audio matn, hikoya matni)ni tushunadi;
ko'rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushunadi;
darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma'lumotlarni tinglab tushunadi;
turli sodda matndagi va jadvallardagi ma'lumotlardan kerakli bo'lgan detal, fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajratadi, umumlashtirib xulosalaydi;
audiomaterialni tinglab, og'zaki aytib beradi va matn ko'rinishida yozib beradi;

Gapirish

oilasi, qiziqishlari haqida ravon gapiradi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi;
turli rasmlarga qarab fikrini og'zaki bayon qiladi va kundalik buyumlarga mos ta'riflar beradi;
mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini og'zaki bayon qiladi;
o'rganilgan matn, topshiriq, grammatik tamoyil va ma'lumotlarni ketma-ketlikka amal qilgan holda og'zaki bayon qiladi;
nutqini adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda, ifodali, ravon, mazmunli va ta'sirchan gapiradi.

O'qish

berilgan matnni tinish belgilariga amal qilgan holda ravon o'qiydi;
matnning ma'lum qismini o'qib uni mantiqan davom ettira oladi;
o'qish mobaynida sodda matnni tushunib, matnning umumiy mavzusini belgilaydi, matnga sarlavha qo'yadi;
unli va undoshlarni talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda o'qiydi;
yangi so'zlarni o'rganadi va ularni avval o'rganilgan so'zlarga bog'lab eslab qoladi, yangi so'zlarning ma'nolarini lug'at va kontekstlar yordamida o'qib tushunadi, xulosa chiqaradi, xulosani matnda berilgan hodisaga bog'laydi;

Yozish:

nuqta, so'roq, undov, vergulni to'g'ri qo'ygan holda sodda gaplar tuzadi;
berilgan tanish mavzu asosida, eshitilgan audiolavha yoki dialog asosida matn tuzadi;
rasm asosida matn tuzib, yozma bayon qiladi;
mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlaydi va fikrini yozma bayon qiladi;
turli matndagi va jadvallardagi ma'lumotlardan kerakli bo'lgan detal, fikrni tushunib ajratadi, taqqoslaydi, umumlashtirib, yozma munosabat bildiradi;
husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 10-12 ta gapdan iborat matn yaratadi;
husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 80-90 ta so'zdan iborat diktant yozadi;

Lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, imlo, leksika, tinish belgilari, ish qog'ozlari*):

Fonetika. Grafika

unli va undosh harflarni biladi va so'zlarda to'g'ri foydalanadi.

tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalarni biladi, yozuvda to'g'ri aks ettiradi;

bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qiladi;

Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlaydi;

lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini biladi;

Talaffuz va imlo me'yorlari

A va O unlilarining talaffuzi va imlosini, I va E unlilarining talaffuzi va imlosini, U va O' unlilarining talaffuzi va imlosini, yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosini izohlaydi;

ayrim undoshlarning talaffuzi va imlosini, Sh, Ch, Ng harflar birikmasining talaffuzi va imlosini, qo'sh va qator kelgan undoshlar talaffuzi va imlo me'yorlarini biladi;

bosh xarflar imlosini, so'zlarni qo'shib yozish va ajratib yozish imlosini biladi;

asos va qo'shimchalarning talaffuzi va imlosini izohlaydi.

Leksikologiya

so'z va uning ma'nolarini anglaydi, matnda so'zlardan o'rinli foydalanadi;

sinonimlar, antonimlar, omonimlarni biladi, og'zaki va yozma nutqida ulardan foydalanadi;

o'zbek tili leksikasining boyish manbalarini biladi;

yangi paydo bo'lgan so'zlarni biladi, tarixiy va arxaik so'zlarni bir-biridan farqlaydi; terminlarni, kasbiy terminlarni, internet va iqtisodga oid terminlarni, fanga oid terminlarni izohlaydi;

lug'at va uning turlarini farqlaydi.

Punktuatsiya

gaplarda tinish belgilarini to'g'ri qo'llaydi;

gap va matn tuzishda nuqta, vergul, so'roq, undov, qo'shtirnoqdan o'rinli foydalanadi.

Ish qog'ozlari

ish qog'ozlari (xat, tabriknoma, taklifnoma, e'lon)ni yozadi.

KIRISH (2 soat)

Tilning ijtimoiy ahamiyati. O'zbek tili — davlat tili.

TAKRORLASH

(4 soat)

Mustaqil so'z turkumlarini takrorlash. Ot so'z turkumini takrorlash. Sifat so'z turkumini takrorlash. Son va olmosh so'z turkumlarini takrorlash. Fe'l so'z turkumini takrorlash.

FONETIKA. GRAFIKA

(22 soat)

Tilshunoslik va uning bo'limlari. Fonetika. Matn va lug'at ustida ishlash. Nutq tovushlari va harf. Matn va lug'at ustida ishlash. Unli tovushlar. Undosh tovushlar. Nutq a'zolari. **Matn** va lug'at ustida ishlash. Nutq tovushlarining aytilishi va yozilishi. Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi. Matn va lug'at ustida ishlash. Fonetik hodisalar. So'zlarda tovush ortishi. Matn va lug'at ustida ishlash. So'zlarda tovush tushishi. So'zlarda tovush almashishi. Bo'g'in va uning ahamiyati. **Mustahkamlash.**

Matn va lug'at ustida ishlash. Urg'u va uning ahamiyati. Matn va lug'at ustida ishlash. Yozuvlar tarixi. Matn va lug'at ustida ishlash. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi.

Mustahkamlash.

TALAFFUZ VA IMLO ME'YORLARI

(27 soat)

Ayrim unlilar imlosi. **A** va **O** unlilarining talaffuzi va imlosi. **I** va **U** unlilarining talaffuzi va imlosi. **E** va **O'** unlilarining talaffuzi va imlosi. Matn va lug'at ustida ishlash. Yonma-yon kelgan unlilar talaffuzi va imlosi. **G** va **K** undoshlarining talaffuzi va imlosi. **Q** va **G'** undoshlarining talaffuzi va imlosi. Matn va lug'at ustida ishlash. **D** va **T** undoshlarining talaffuzi va imlosi. Matn va lug'at ustida ishlash. **J** va **Dj** undoshlarining talaffuzi va imlosi. **F** va **V** undoshlarining talaffuzi va imlosi. **X** va **H** undoshlarining talaffuzi va imlosi. **Z** va **S** undoshlarining talaffuzi va imlosi. Matn va lug'at ustida ishlash. **Sh** va **Ch** harflar birikmasi va ularning vazifalari. **Ng**, **ng** harflar birikmasi va uning vazifalari. Matn va lug'at ustida ishlash. **Qo'sh** undoshlar talaffuzi va imlosi. Qator undoshlar talaffuzi va imlosi. Asos va qo'shimchalar imlosi.

Mustahkamlash.

Qo'shib yozish. Ajratib yozish. Bosh harflar imlosi. Chiziqcha bilan yozish. Ko'chirish qoidalari.

LEKSIKOLOGIYA

(42 soat)

O'zbek tilining lug'at boyligi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Sinonimlar. Sinonimik qatorda bosh so'z. Matn va lug'at ustida ishlash. Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish. Antonimlar. Matn va lug'at ustida ishlash. Paronimlar. Matn va lug'at ustida ishlash. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. O'z va o'zlashgan so'zlar. Yangi paydo bo'lgan so'zlar. Tarixiy va arxaik so'zlar. Matn va lug'at ustida ishlash. Joy nomlari tarixi. Matn va lug'at ustida ishlash. Ismlar ma'nosi va imlosi. Matn va lug'at ustida ishlash.

Mustahkamlash.

Terminlar, Kasbiy terminlar. Iqtisodiyotga oid terminlar. Internetga oid terminlar. Matn va lug'at ustida ishlash. Aniq fanlarga oid terminlar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid terminlar. Matn va lug'at ustida ishlash. Qavm-qarindoshlik bilan bog'liq so'zlar.

Mustahkamlash. Iboralar. Matn va lugʻat ustida ishlash. Maqollar. Hikmatli soʻzlar. Matn va lugʻat ustida ishlash.

Lugʻatshunoslik. Lugʻat va uning turlari. Matn va lugʻat ustida ishlash. Izohli lugʻat. Matn va lugʻat ustida ishlash. Imlo lugʻati. Matn va lugʻat ustida ishlash.

Mustahkamlash.

PUNKTUATSIYA.

(5 soat.4 soat)

Punktuatsiya boʻlimi haqida maʼlumot. Nuqta va vergulning ishlatilishi. Soʻroq belgisining ishlatilishi. Undov belgisining ishlatilishi. Qoʻshtirnoqning ishlatilishi.

ISH QOGʻOZLARI

Ish qogʻozlari ustida ishlash. Eʼlon, xat. Ish qogʻozlari (tabriknoma) ustida ishlash. Ish qogʻozlari ustida ishlash. Taklifnoma.

OʻQUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(4 soat)

Fonetika va grafika boʻyicha oʻtilganlarni takrorlash. Imlo va talaffuz meʼyorlari boʻyicha takrorlash. Leksikologiya boʻyicha takrorlash. Lugʻatshunoslik boʻyicha takrorlash.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Boʻlimlar nomi	Jami soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazorat ishlari	Nazorat ishlari tahlili	Mustahkamlash	Takrorlash
1	Kirish	2				
2	Yil boshida takrorlash					4
3	Fonetika. Grafika	22				
4	Imlo va talaffuz meʼyorlari	27				
5	Leksikologiya	42				
6	Punktuatsiya	5				
7	Ish qogʻozlari ustida ishlash	4				
8	Mustahkamlash				6	
9	Oʻquv yili oxirida takrorlash					4
10	Nazorat ishi va tahlili uchun		16	4		
Jami		136				

